"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish .....	1079
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1083
Aliqulov Mehmomalai Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirtishda sun'iy texnologiyalarning o'rni .....	1088
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhitini jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1093
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1198
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1103
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity	
of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	
O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati ....	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich,	
Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1129
Рузибоеva Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat	
vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion	
marketingning o'rni va mohiyati .....	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloyev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning	
iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishslash samaradorligini oshirish yo'llari	
("Agrobank" ATB misoldi).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	



O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash .....	1177
<b>Ma'lakov G'olibjon Muxammad o'g'li</b>	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City .....	1182
<b>Shahzad Zokhidov</b>	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога .....	1186
<b>Муҳиддинов Талат Шайдулло угли</b>	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
<b>I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarни jalb etish xususiyatlari.....	1194
<b>Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li</b>	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
<b>Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li</b>	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzallikkari.....	1203
<b>Ahrorov Farhod Baxriddinovich</b>	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
<b>Muhitdinov Asror Akobirovich</b>	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari .....	1213
<b>Djumayev Zayniddin Ahmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li</b>	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari .....	1219
<b>Tursunov Nozimjon Nosirovich</b>	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
<b>Saida Yuldasheva</b>	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan .....	1227
<b>Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li</b>	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni .....	1231
<b>Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna</b>	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
<b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
<b>Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna</b>	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан .....	1250
<b>Эркинов Шахзод Баходир ўғли</b>	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budget daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
<b>Ikramov Ravshan Amanbayevich</b>	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish .....	1261
<b>Azadova Bonuposhsha Alisher qizi</b>	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
<b>Sadikov Iskandar Gayratovich</b>	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbaevich</b>	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
<b>Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	1281
<b>Jumayeva Gulruk Jo'raqulovna</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati .....	1284
<b>Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich</b>	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari .....	1289
<b>Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna</b>	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakkllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari .....	1294
<b>Berkinov Bazarbay Berkinovich</b>	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollarini ta'minlash omillari.....	1300
<b>X. I. Boyev</b>	



# XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI

**Mirzayev Qulmamat Janzakovich**

I.f.d., Samarcand iqtisodiyot va servis instituti professori

**Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanish jarayoni va raqamlashtirish masalalari bo'yicha mualifning fikrlari keltirilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmat ko'rsatish, servis, raqamli, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, raqamli xizmat, blockchain, bulutli texnologiya, diversifikatsiya, modernizatsiya, innovatsiya.

**Abstract:** This article presents the author's views on the development of the service sector and digitalization issues. Also, proposals and recommendations for the digitalization of the service sector were developed.

**Key words:** service, service, digital, digitalization, digital economy, digital service, blockchain, cloud technologies, diversification, modernization, innovation.

**Аннотация:** В данной статье представлены взгляды автора на процесс развития сферы услуг и вопросы цифровизации. Также были разработаны предложения и рекомендации по цифровизации сферы услуг.

**Ключевые слова:** услуга, сервис, цифровой, цифровизация, цифровая экономика, цифровой сервис, блокчейн, облачные технологии, диверсификация, модернизация, инновации.

## KIRISH

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mamlakat rivoji uchun o'zining muhim hissasini qo'shib, aholi turmush darajasini va farovonligini yuksalishiiga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishida asosiy lakomitivlardan biri sifatida xizmat ko'rsatish sohasini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatini tashkil etish, uni rivojlantirishga alohida shart-sahroitlar yaratilib, imtiyozli yordamlar berilmoqda. Aholiga xizmat ko'rsatish sohasi hozirgi vaqtida iqtisodiy jarayonlarning barcha jabhalariga tobora kuchliroq kirib bormoqda. Ammo uning milliy iqtisodiyotdagи samaradorligi ko'p jihatdan yangicha ijtimoiy mehnat munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga bog'iq bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko'zda tutadigan "Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiysi"ni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish kerak" [2], deb ta'kidlaganlari, mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich raqamli texnologiyalar dasturiga o'tkazishni hamda 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulotda uning ulushini kamida 30 foizga o'stirish kabi ustuvor maqsadlar qo'yilgani bugungi davrning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday vazifalarni amalga oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalari qatoridan joy olib, xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish, uni raqamli texnologiyalar asosida diversifikatsiyalashni taqozo etmoqda. Buning samarali yechimi sifatida xizmat ko'rsatish faoliyatiga innovatsion, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirishga erishishimiz mumkin.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish masalalari bo'yicha Fotis Kitsios, Mariya Kamariotu "Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalar jarayonini raqamlashtirish: foydalanish va tadqiqot sohalari" nomli ilmiy maqolasida innovatsion iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning maqsadi, yangi turdag'i xizmatlarni ishlab chiqish jarayonida raqamli dastur va texnologiyaning o'mni va xizmat ko'rsatishni amalga oshirishda menejerlarning raqamli texnologiyadan samarali foydalanish yo'llari, shuningdek, raqamli xizmat ko'rsatish sohasiga texnologik darajani yuksaltirishga investitsiyalarni jalg qilish bo'yicha fikrlar keltirilgan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [3].

R.H.Ayupov, G.R.Boltaboyeva "Raqamli iqtisodiyot asoslar" nomli darsligida zamonaviy elektron tijorat hamda raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan muammolar bilan bog'liq masalalar, raqamli iqtisodiyotga o'tish mexanizmi, elektron tijorat va elektron biznesning bir qancha samarali biznes modellari haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar berilgan [4].

M.Q.Pardayev, Q.J.Mirzayev, O.M.Pardayev "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti" nomli O'quv qo'llanmasida xizmatlar sohasi iqtisodiyotining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar bo'yicha rivojlantirishning asosiy yo'naliislari va istiqbollari, har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari hamda ushbu soha faoliyatini baholash va hisobga olish yo'llari qarab chiqilgan. Shuningdek, kommunal xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati mazmuni va ularni hisobga olish yo'llari tahlil etilgan [5].

M.M.Payazovning "Iqtisodiyotni boshqarishda xizmat ko'rsatish sohasini transformasiyalash ustuvor vazifa hisoblanadi" nomli ilmiy maqolasida xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish masalalari, xizmat ko'rsatish sohasining aholi hayot sifatini ta'minlashda raqamlashtirishning tutgan o'mni, sohani transformatsiya qilishda davlat tizimi tuutgan o'rni, ishlab chiqarish korxonalarini raqamlashtirish, aholining internet do'kon, internet banking xizmatlaridan foydalanish, bu borada hududlardagi holati tahlili, xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish natijasida aholi turmush farovonligini yuksalishi kabi masalalar yoritilgan [6].

J.N.Fayzullayev "Raqamli iqtisodiyot tushunchasining mohiyati bo'yicha ilmiy yondashuvlar tahlili" nomli ilmiy maqolasida "raqamli iqtisodiyot" tushunchasining shakllanishi, uning mazmun va mohiyati bo'yicha ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan va guruhlangan. "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni yoritgan [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur muammoni tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida o'rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o'rganilib, rivojlangan mamlakatlar tajribasini mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini raqamli texnologiyalar bilan diversifikatsiya qilish bo'yicha imkoniyatlarini ochib berishda ahamiyat kasb etgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Bugungi kunda har bir davlat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni o'zining ustuvor yo'naliishi, deb biladi. Davlat dasturlari yordamida raqamlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va huquqiy tartibga solish, mamlakatimizda raqamli savodxonlik darajasi tahlil qilinib rivojlanmoqda. O'zbekiston ham raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirishda jarayonga moslashish sur'atini oshirmoqda.

O'zbekiston Prezidenti 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4699-sonli qarorni imzoladi [2]. 2023-yilga kelib O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi raqamli iqtisodiyot ulushini 2 barobar, elektron davlat xizmatlari sonini esa 376 taga yetkazish rejalashtirilgan (hozirda yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (YIDXP) orqali 326 ta davlat xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yilgan) bo'lib, ushbu maqsad to'laqonli malaga oshirilgan desam bo'ladi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda sayyohlik yo'naliishlariga tashrif buyurgan global sayohatchilar soni 1,4 milliardga yetgan bo'lib, bu 2018-yilga nisbatan 4,4 foizga ko'p bo'lgan va buning bu tendensiyaga erishishida raqamli texnologiyalardan keng miqyosda amaliyotda foydalanishi bilan izohlashimiz mumkin. Bundan tashqari, Jahon savdo tashkiloti 2019-yilda butun dunyo bo'ylab mehmonxonalarini bron qilishning 75 foizi onlayn rejimida amalga oshirilganini ma'lum qilgan. Eronga 2019-yilda mahalliy va xorijiy sayyohlar soni 8 million 444 ming 144 nafarga yetgan va so'nggi yillarda Eronga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni ortganligini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababları sifatida turizm xizmat ko'rsatish jarayoniga raqamli xususan, to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt va blokcheyn kabi turli texnologiyalar sayyohlik sanoatida tobora ko'proq foydalanilyotganligi bilan izozhlash mumkin [13]. Masalan, ba'zi mehmonxonalar sayohatchilarga ajoyib tajriba taqdim etish uchun to'ldirilgan reallikdan foydalanadi, ba'zi aviakompaniyalar ish faoliyatini yaxshilash va yo'lovchilarga yuqori xizmatlarni taqdim etish uchun sun'iy intellektni qo'llaydi.



Raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga ta'siri faqat Eron bilan cheklanmaydi, chunki raqamli iqtisodiyot va unga aloqador texnologiyalar turizm sohasining global o'zgarishining muhim omillariga aylantirmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlardagi mehmonxonalarni bron qilishning 80% dan ortig'i turli veb-saytlar va ilovalar orqali onlayn tarzda amalga oshiriladi. Xitoyda blokcheyn sayyohlik sanoatida strategik texnologiya sifatida Xitoyning eng yirik sayyohlik kompaniyalaridan biri sifatida foydalaniladi va sayohatchilar ma'lumotlarini boshqarish va himoya qilish uchun blokcheyndan foydalanadi. Yevropada to'ldirilgan reallik va sun'iy intellekt kabi raqamli texnologiyalar turizm sohasida ham qo'llanilmoqda, ba'zi mehmonxonalar to'ldirilgan reallik texnologiyasining tajribasini tadbiq etmoqda va ba'zi aviakompaniyalar esa ishlash va xizmat sifatini yaxshilash uchun sun'iy intellektdan keng miqyosda foydalanadilar [13] (1-rasm)



**1-rasm:** Raqamli iqtisodiyoti rivojkangan mamlakatlarning turizm sohasidagi tendensiyalari va uning iqtisodiy tarmoq bilan farqli jihatlari [14]

Bizga ma'lumki raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida birinchi jabhalardan biri bo'lib xizmat ko'rsatish (servis) sohasi hisoblanadi. Dastavval raqamli iqtisodiyot "buyumlar interneti", "mediya internet" dasturiy ta'minoti orqali aholiga xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshlagan. Bu jarayonlarda raqamli texnologiyalar samarali faoliyati, kam xarajatligi, tizim shaffovligi, ochiq faoliyati sababli ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchilarda katta qiziqish uyg'otgan. Bu holat o'z navbatida ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarini yangi iqtisodiy tartiblarga o'tish jarayoninijadallashtirib, insonlar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining ichki va tashqi jarayonlarini keskin o'zgartirdi, tizimda korrupsiya holatlarini keskin oldini oldi hamda ijobji siljishlar jarayonlari vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdorligining o'sishiga xizmat qilishi hamda ijtimoiy boylik ishlab chiqarishning moddiy tarkibiy qismida qo'shilgan qiymat yaratishi lozim va bu axborotlashgan jamiyat iqtisodiyotida uning birinchi iqtisodiy mazmuniga aylanadi. Bu borada mamlakatimiz olimlari tamonidan "raqamli iqtisodiyot yoki boshqacha qilib aytganda veb-iqtisodiyot zamонави raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashkil qilinadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy muno-sabatlar tizimini ifodalaydi" [4], degan fikrlar keltirilgan. Demak, raqamli iqtisodiyot moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohadida o'zining vertikal iqtisodiy o'sishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotlarimiz davomida raqamli iqtisodiyot 2017-yil hal qiluvchi bosqichga kirishganini ko'rishimiz hamda sayyoramiz aholisining yarmi internetga ulanganligini fikrimiz tasdig'idir. Ma'lumotlarga ko'ra McKinsey global institutining (MGI) tahlillariga ko'ra, yaqin 20 yil ichida dunyoning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining 50%gacha bo'lgan qismi raqamlashtiriladi, bu jarayon ko'lami bo'yicha XVIII–XIX asrlarda ro'y bergan sanoat inqilobi bilan taqqoslanishi mumkin [8]. Shuningdek, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va o'sish dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois, ishtirokchilar soni ko'p va axborot texnologiya xizmatlari keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi.

Hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohasining ko'plab jabhalarida raqamli xizmatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, yetkizib berish, "online" savdo, elektron biznes, elektron tijorat, media, ta'lim, kommunal xizmatlar, tibbiyot, davlat xizmatlari, bank xizmatlari va boshqa sohalarni raqamlashtirilishi soha faoliyatini natijadorligiga, xizmatlar sifatini yuksalishiga, tizim shaffovligini oshirishiga, korrupsiya holatlarini bartaraf etishga xizmat qil-



moqda. Ammo, xizmat ko'rsatish sohasi to'laqolli raqamlashtirilmaganli soha faoliyatidan to'laqolli foydalanishga to'siq bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida transport xizmatlari, maishiy xizmatlar (sartaroshxona, aftomobil ta'mirlash, oziq-ovqat), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar, me'morchiлик, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarini raqamlashtirish xizmat ko'rsatish sohasini to'laqolli samaradorligini ortishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan xizmat ko'rsatish sohalarini raqamlashtirish hozirgi davrning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tan-narxini, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish" [1], deb ta'kidlaganliklari, ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalarni belgilab bermoqda. Buning uchun xizmat ko'rsatish sohasiga raqamli texnologiyalarni mamlakatimiz hududiga olib keluvchi korxonalarini davlat tamonidan moliyaviy, huquqiy, bojxona xizmatlari tamonidan qo'llab quvvatlash, shuningdek, raqamli texnologiya vositalarni ishlab chiqaruvchi investorlar uchun shart-sharoitlar yaratib berish, raqamli texnologiya asoslangan korxonalarini mamlakatimizda faoliyatini tashkil etish, raqamli texnologiya dasturlari, tovarlarini ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlarini berish, mavjud kadrlarni raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda malakasini ortirish, raqamli xizmat ko'rsatish bo'yicha oliy dargohlarda malakali, zamon standartlariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash, hamda davlat xususiy sherikchilik doirasida raqamli xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini shakkantirish kabi maqsadlarni amaliyotga joriy etish orqali xizmat ko'rsatish samaradorligiga va davlatimiz iqtisodiyotini vertikal o'sishiga erishishimiz mumkin.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish quyidagi ijobiy avzallikkлага ega bo'lishi mumkin:

- xizmat ko'rsatish jarayoni uchun to'lovlarni amalga oshirish xarajatlarini kamayishiga;
- ko'rsatiladigan xizmatlar haqida batafsil va tezroq ma'lumotlar olish imkoniyatlari vujudga kelishiga;
- mamlakatimizda ishlab chiqariladigan moddiy va nomoddiy tovarlarning jahon bozoriga chiqishi;
- fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtirilishiga;
- xizmat ko'rsatish jarayonida tezroq, sifatliroq, qulayroq muhitni shakllanishi;
- xufyona iqtisodiyotni rivojlanishini oldini olishga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish maqsadida quyidagi xulosa va takliflarga keldik:

- Elektron savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida raqamli texnika-texnologiyalar (blokcheyn texnologiyasi, bulutli texnologiyasi, su'niy intelekt, 3D texnologiyasi, 5G aloqa tizimi, buyumlar interneti)dan samarali foydalanish hamda xizmat ko'rsatish sohasini raqamli platformlar bilan diversifikatsiya qilish va buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;
- Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli texnologiyalarda ishlay oladigan malakali kadrlar tayyorlash, sohada o'quv faoliyati darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, xizmat ko'rsatish mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xizmat ko'rsatish tizimiga mutaxassislarini raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan jalb qilish orqali sohani rivojlantirish;
- Raqamli xizmatlar va xizmatlar uchun elektron to'lovlarni tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to'lovlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasi ma'lumotlari bazasini takomillashtirish;
- Raqamli texnologiya, dasturiy ta'minot, raqamli vositalarni respublikamiz hududlariga kirib kelishida bojxona imtiyozlarini berish va raqamli texnika-texnologiyani ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- Elektron tijoratning rivojida muhim rol o'ynovchi pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash, shuningdek, pochta va logistika xizmatlari sifatini oshirish kabi takliflarni amaliyotga joriy etish.

Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi natijasida mamlakat iqtisodiyotining rivojiga, YalMDa xizmatlar ulushining ortishiga, aholi turmush farovonligini yuksalishiga, qayta tiklanmas tabiy resurslarni tejashga, ekologik salbiy oqibatlarni yumshatishga, jaxon bozoriga tez sur'atlarda chiqishga hamda Prezidentimiz belgilab bergen 2030-yilga borib YalMDa raqamli iqtisodiyotning ulushi 30 % yetkazish darajasiga erishishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni. Toshkent sh., 2020-yil 5-oktabr, www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4699-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi 2019-yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2019 yil. 1-son.
4. Фотис Кициос, Мария Камариоту. "Оцифровка процесса инноваций в сфере услуг: области для использования и исследования" <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/JHTT-02-2019-0041/full/html>
5. R.H.Ayupov, G.R.Boltaboyeva Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020 y, 575 bet.
6. M.Q.Pardayev, Q.J.Mirzayev, O.M.Pardayev "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. "IQTISOD-MOLIYA", 2014-yil. 384-b.
7. Payazov Murod Maksudovich "Iqtisodiyotni boshqarishda xizmat ko'rsatish sohasini transformasiyalash ustuvor vazifa hisoblanadi" <http://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/issue/view/65>.
8. J.N.Fayzullaev "Raqamli iqtisodiyot tushunchasining mohiyati bo'yicha ilmiy yondashuvlar tahlili". Axborot texnologiyalar iqtisodiyoti jurnalı. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2022, 1(149).
9. А.В.Лобзов Без чего не работает корпоративная система управления проектами // Российское предпринимательство. – 2015. – Том 16. – № 13. – С. 2045- 2052.
10. Nicholas Negroponte. Being Digital. – London: Hodder & Stoughton, 1995. – 243 p. <http://governance40.com/wp-content/uploads/2018/12/Nicholas-Negroponte-Being-Digital-Vintage-1996.pdf>.
11. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. "Economy development in corporate governance of joint stock company". Экономика и бизнес: теория и практика, (2021). (3-2), 217-219.
12. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
13. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi.
14. Muallif ishlansasi.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

